



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMİYASI  
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI  
VA FOLKLORI INSTITUTI



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR  
KENGASHI

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani



4-dekabr 2024-yil

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## IZLANISH SAMARALARI

№9 Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Toshkent, O‘zbekiston

2024-yil 4-dekabr

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## YOR-YOR QO‘SHIQLARIDA POETIK TASVIR VA RAMZLAR IFODASI

Hulkar Aliqulova

ToshDO ‘TAU katta o ‘qituvchisi, Filologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD)  
[hulkaraliquulova79@gmail.com](mailto:hulkaraliquulova79@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada o ‘zbek va qozoq nikoh to ‘y marosim qo ‘shiqlaridan yor-yorlarning o ‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Maishiy hayat bilan bog ‘liq dunyoqarash va poetik olamni birlashtiruvchi vosita badiiy san ‘atlar, ramzlar, o ‘xshatishlarning yor-yor qo ‘shiqlaridagi ifodasi xalqonaligi bilan ajralib turadi. Qiyosiy tipologik tahlil asosida o ‘zbek va qozoq yor-yorlarining badiiy xossalari tadqiq etildi.

**Kalit so ‘zlar:** ramz, badiiylik, xalqona tasvir, yor-yor, belbog’, ro ‘mol, poetik ifoda.

**Abstract:** The article analyzes the unique characteristics of yor-yors from Uzbek and Kazakh wedding ceremony songs. The means of unifying the worldview related to everyday life and the poetic world are distinguished by the folk art, the expression of symbols, similes in songs. On the basis of a comparative typological analysis, the artistic properties of Uzbek and Kazakh yor-yors were studied.

**Key words:** symbol, artistry, folk image, scarf, poetic expression.

Qo ‘shiqlarda poetik mukammallikka erishish uchun, xalqning kultlar, inonchlar bilan bog ‘liq qarashlari juda ko ‘p uchraydi. Ijtimoiy hayat bilan uzviy bog ‘liq bo ‘lgan bunday ichki kechinmalar, inonchlar yor-yor matnlarida o ‘ziga xos, takrorlanmas holatda vujudga kelgan. Masalan, ot obrazi xalq eposi, ertaklaridagi epik otlardan ko ‘ra insonning qalb kechinmalari, ruhiy holatlariga ko ‘proq urg ‘u berishi, nozik lirizmga boyligi bilan farqlanib turadi. Bu haqda folklorshunos A.Tilavov “Ot obrazi: tarix, tahlil va talqin”<sup>1</sup> tadqiqotida epik asarlarda ot obrazi bilan bog ‘liq tasvirlarni yetarlicha yoritib bergen. A.Musaqulovning “O ‘zbek xalq lirikasi” monografiyasida lirik qo ‘shiqlarda ot obrazi tasviri turkiy xalqlarning totemistik qarashlari bilan bog ‘liq ekanligi tahlil etilgan. Olim J.Eshonqulovning “Folklor: obraz va talqin” kitobida ham ot va devlarning dostonlarda tutgan o ‘rni yuzasidan ma ’lumotlar berilgan<sup>2</sup>.

Ostonangni ostida,

Otang yotar, yor-yor.

Oq bo ‘z otni yuborsang,

Kelmayotir, yor-yor<sup>3</sup>.

Боз қазанат<sup>4</sup> дегенде,

<sup>1</sup> Тилавов А. От образи: тарих, тахлил ва талқин. – Тошкент: Sano-standart, 2021. – 160 б.

<sup>2</sup> Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 172 б.

<sup>3</sup> Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Б. 156.

<sup>4</sup> Yilqining bir turi.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Боз қазанат, жар-жар-ая.  
Құдай қосса сіңілім де,  
Болды азамат, жар-жар-ая.  
Өмірің қысқа жалған жар,  
Ойбай, елім, аман бол<sup>5</sup>.

Oilaviy marosim folklorining poetik asosi ham mifik qarashlardan boshlanib, qadimdan bugungi kungacha shakllangan tarkibiy-mazmuniy, janriy, poetik tabiatida qadimgi marosimiyy dunyoqarashning zanjirlarini saqlab, har zamon uchun mos turli xil funksiyalarini egallaydi. Bu to‘g‘risida qozoq olimi K.Matijanov: “Folklorning, jumladan, ayniqsa marosim folklor estetikasining (poetikasining) ichki o‘zagini marosimiyy dunyoqarash tashkil etadi yoki uni “marosimiyy o‘ylash” deb atash ham mumkin. Uning o‘zagida har bir xalqning o‘z dunyoqarashi yotadi. Xalq ijodining butun poetik olami mana shu dunyoqarashdan kuch oladi”, – deya ta’rif beradi<sup>6</sup>. Ko‘rinib turibdiki, dunyoqarash va poetik olamni birlashtiruvchi vosita badiiy san’atlar, ramzlar, o‘xshatishlardir. Oilaviy marosimning qiz uzatish to‘yida ijro etiladigan barcha qo‘shiqlarda badiiy tasvir vositalarning, ramzlarning o‘rni beqiyosdir. Xalq qo‘shiqlaridagi har bir so‘z shunchaki paydo bo‘lib, qofiyalanib, raviylanib, radiflanib kelmaydi. Ularning har biri nozik mazmun, tub g‘oyani ifodalaydi. Yor-yor qo‘shiqlarida *to‘n, beqasam to‘n, olchimbar to‘n, doka ro‘mol, belbog‘* kabi milliy kiyimlar bilan bog‘liq bir qancha tasvirlar uchraydi. Ularning har biri xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy hayoti, urf-odatlari, turmush tarzi, irim-sirimlari haqida ma’lum axborotlar beradi. Qolaversa, o‘ziga xos milliy an’analarning avloddan-avlodga yetib kelishi uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ana, kuyov kelayotir – kutib olgin, yor-yor,  
Belindagi belbog‘in yechib olgin, yor-yor.  
Oq qo‘lingni bo‘yniga asta solgin, yor-yor,  
Bir umrga mehribon bo‘lib qolgin, yor-yor<sup>7</sup>.

Turkiy xalqlar orasida ham qadimda belbog‘ an’anaviy milliy kiyimning muhim bir qismini tashkil etish bilan birga belbog‘ egasining jamiyatda tutgan mavqeini ham bildirib turgan. Kishining belidagi belbog‘iga asoslanib uning qancha davlat va mol-dunyo egasi ekanligini anglash mumkin bo‘lgan. Beldagi belbog‘ning ko‘pligi shaxs mol-dunyosining shunchalik ko‘pligidan dalolat bergen<sup>8</sup>. Keyinchalik belbog‘

<sup>5</sup> Садырбаев С. Қазақ халық әдебиеті. – Алматы: Рауан, 1990. – Б. 57.

<sup>6</sup> Матыжанов К.И. Қазактың отбасылық ғұрып фольклоры. – Б. 332.

<sup>7</sup> Шода-шода марварид. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 382.

<sup>8</sup> Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 184.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bog‘lash ma’lum bir marosim (to‘y yoki aza)larda odatga aylanib qolgan. O‘zbek belbog‘lari o‘zining amaliy-marosimiy funksiyalariga ham ega. Erkak va ayollarning aza hamda to‘ylarda bel bog‘lashlari marosimiy ahamiyatga molikdir. Belbog‘ bilan bog‘liq urf-odatlar turli viloyatlarda turlicha talqin etiladi. Ayniqsa, to‘y marosimida belbog‘ – erlik ramzi. Ayollar ro‘moli kabi erlar belbog‘i ham tarixiy asoslariga ko‘ra jinslarni farqlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, er kishining kuch-qudratiga ham ishora bergen.

Belbog‘ o‘zbek va qozoqda tomonidan juda qadim zamonlardan beri e’zozlanib kelinadi va u milliy kiyimlarning azaliy ajralmas qismi hisoblanadi. Belbog‘lar kishiga kiyimlarning badanga yopishib turishini ta’minlovchi, qad-qomatini to‘g‘ri tutuvchi, ixcham va xushbichim bo‘lishini ta’minlovchi vosita hisoblanadi. Qadimda belbog‘ kishi yoshini ham ifodalagan. Belbog‘ uni bog‘lovchi shaxsning er yigit, er kishi sifatida shakllanganligidan dalolat bergen.

Qozoqlarda ham belbog‘ning o‘z ramziy ifodalari mavjud. Sinsu, jar-jar, betashar, jupatu, jo‘qlov qo‘shiqlarida belbog‘ badiiy poetik mazmunni shakllantirish uchun xizmat qilgan.

Буынғаным беліме,  
Кісен бе еді жар-жар-ay.  
Бекем бусам белімнен,  
Тұсермееді жар-жар-ay<sup>9</sup>.  
(Bog‘laganim belimga,  
Kishanmidi, yor-yor.  
Mahkam bug‘sam belimni,  
Tusharmidi, yor-yor).

Uzatiladigan qizning beliga belbog‘ bog‘lanishida ham ramziy ifoda bor. Belbog‘ning funksional xususiyati dunyodan o‘tgan odamni uydan chiqarish vaqtida ko‘rinadi. Ya’ni mayit uch joyidan bog‘lanadi, qabrga qo‘yilganda belidagi belbog‘i oyoq tomoniga qo‘yib ko‘miladi. Buni yo‘qlov qo‘shiqlarida ko‘p uchratamiz. Demak, o‘lgan odamning beliga belbog‘ bog‘lab, keyingi hududga ko‘chirish bilan begona hududga ko‘chiriladigan qizning beliga belbog‘ bog‘lash tub mazmun-mohiyatga ega. Qiz ham ota uyidan, o‘zga xonadonga ko‘chirilmoqda. Uzatiladigan qizning beliga belbog‘ bog‘lash ozarbayjon, tojik, turkman, turk(qizil belbog‘)larda ham mavjuddir. Bunday ritual odat ikki olam o‘rtasini (hayot va o‘lim, qizlik va ayollik) bog‘lash bo‘lsa ajab emas.

<sup>9</sup>Саттаров Қ. Рухани мұра: Сыңсу мен қыз мұны. – Шымкент: 2006. – Б. 24.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Yor-yorlarda poetik tasvirni oshiruvchi vosita ramzlardir. Narsa predmetlar, ranglar, osmon jismlari ishtirokida o‘ziga xos ramziy ifodalarning asl namunalarini uchratish mumkin. Qo‘shiqlar hajman kichik bo‘lganligi uchun, har bir so‘z katta mazmun-mohiyatni ifodalovchi vositadir. Ramzlar bilan birgina so‘z orqali keng mazmunni ifodalash imkoniyati yuzaga keladi. Professor Sh.Turdimov ta’kidlaganidek: “Poetik ramz qo‘shiqlardagi mavhum tushunchalarni, anglatish qiyin bo‘lgan nozik tuyg‘ularni, turli ruhiy holatlarni bir yoki bir necha so‘z orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Qo‘sinqning ohangdorligini ta’minlaydi, badiiy qimmatini oshiradi”<sup>10</sup>.

Rang ramzları qadimiyligi bilan e’tiborni tortadi. Rang haqidagi tushunchaning qayta idrok etilishidan va bu tushunchaning shartlilik kasb etishidan rang ramzi hosil bo‘ladi. Ramzlar orqali esa so‘z va iboralarning mazmun-mohiyati rivojlanadi. O‘zbek folklorida rang simvolikasini o‘rgangan M.Ro‘ziyevaning fikricha, qadimgi davrlarda odamlar ranglarni to‘liq ilg‘ay olishmagan. Ularning nazarida dunyoda faqat uch xil rang mavjud: oq, qizil, qora<sup>11</sup>.

Yor-yorlarda ranglar bilan bog‘liq ramziy tasvirlar obrazlarning ruhiyatini, imkoniyatlarini, marosim bilan bog‘liq tuyg‘ularini ifodalashda yetakchilik qiladi. Masalan, “oq miltiq, qora miltiq”, “oq gul, qizil gul”, “oq olma, qizil olma”, “ola qop”, “ola tov/tog”, “qora tov/tog”, “bo‘z ot”, “oq ot”, “oq paranji”, “oq qo‘mg‘on”, “oppoq popuk”, “oq ipakdek”, “oq sut”, “rangi sariq” kabi. Oq rang yetakchilik qilmoqda. Qozoqlarda ham oq sifat – belgi darajasi tozalik, pokizalik, poklik, yaxshilikni bildirib, folkorda ramz formulasiga aylangan. Masalan, “жүзи ақ”, “омай ақ”, “өлең босағасы да ақ” kabi birikmalarda, oq rangi kelinning keyingi tole-taqdiri bilan uzviy bog‘liq istaklarga uyg‘un holda ramziylashmoqda. Qadimgi mifologik qarashlarga ko‘ra oq rang – “xudolar rangi, ko‘zga ko‘rinmas kuch-qudrat rangi” sifatida ilohiy rang deb qaralgan<sup>12</sup>. Oq rang dunyoning ko‘plab xalqlarida motam rangi hisoblanadi. Qadimgi turkiy xalqlarda ham oq rang motamni, musibat va g‘am-anduhni, qurg‘oqchilikni anglatib kelganligi haqida ma’lumotlar bor<sup>13</sup>. Professor B.To‘xliyev ham “Qutadg‘u bilig”da rang ramziga doir” maqolasida ranglarning og‘zaki va yozma manbalardagi ramziyligi haqida ma’lumot bergen.

<sup>10</sup>Турдимов Ш. Халқ кўшикларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 10.

<sup>11</sup> Рӯзиева М. Ўзбек фольклорида ранг символикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2016. – Б. 10.

<sup>12</sup> Рӯзиева М. Ўзбек фольклорида ранг символикаси. – Б. 14.

<sup>13</sup> Рӯзиева М. Туркий халклар фольклорида ранг ифодаловчи сўзлар ва уларнинг семиотик таҳлили // Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2020 йил, – №1). – Б. 145-150.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Birgina oq rangning ham to‘y, ham motam marosimida o‘z ramziy ifodasi mavjudligi, ranglarni xalq og‘zaki ijodida, marosimlarida, urf-odatlarida o‘rni beqiyos ekanini dalillaydi.

Ақ отауым тіккен жер,  
Ойдан болсын, жар-жар-ая.  
Ақ жүзімді көруге,  
Айнам болсын, жар-жар-ая.

**Yoki:**

Ақ сүт берген шешеме,  
Не корсеттім, жар-жар.  
Жат кісінің баласін,  
Жолдас еттім, жар-жар<sup>14</sup>.

Ranglar ramziylashganda asosan psixologik parallelizmlarni tasvirlaydi. Obrazning tashqi qiyofasi ta’riflanganda, ranglar o‘z ma’nosida kelsa, ruhiy histuyg‘ular, ichki o‘y-kechinmalar – psixologik holatlar ramziy ko‘chimlar orqali yanada go‘zallashadi, ta’sirchanlik doirasi oshadi.

Umuman olganda, poetik detallar orqali ramziy ifodalarni berish, ko‘zlangan g‘oyani, fikrni yetarlicha aks ettirish xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlardir. Bunday namunalarni yaratayotgan xalq poetik detal, parallelizm nima ekanligini aytolmas, lekin uning so‘zga chechan, donoligiga hech shubha yo‘q. Xalq to‘y marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan yor-yor janrida aytilayotgan fikrning lo‘nda, aniq, qolaversa obrazli ifodalanishi, uning kishi xotirasida oson saqlanib, uzoq yashashiga imkon yaratadi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 184.
2. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 172 б.
3. Рўзиева М. Туркий халқлар фольклорида ранг ифодаловчи сўзлар ва уларнинг семиотик таҳлили // Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2020 йил, – №1). – Б. 145-150.
4. Рўзиева М. Ўзбек фольклорида ранг символикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2016. – Б. 10.
5. Саттаров Қ. Рухани мұра: Сыңсу мен қызы мұны. – Шымкент: 2006. – Б. 24.
6. Садырбаев С. Қазақ халық әдебиеті. – Алматы: Рауан, 1990. – Б. 57.
7. Матыжанов К.И. Қазақтың отбасылық ғұрып фольклоры. – Б. 332.
8. Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Sano-standart, 2021. – 160 б.
9. Турдимов Ш. Халқ құшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 10.
10. Шода-шода марварид. Ўзбек халқ құшиқлари. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 382.

<sup>14</sup> Садырбаев С. Қазақ халық әдебиеті. – Алматы: Рауан, 1990. – Б. 59.